Turizmni hududiy rivojlanish omili sifatida o'rganishda O'zbekiston olimlari tomonidan muhim ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. I.S. To'xliyev turizmni xizmatlar iqtisodiyotining ko'p tarmoqli sohasi sifatida izohlaydi va turizmni rejalashtirishda hududiy resurslar, infratuzilma va boshqaruv mexanizmlarini uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi [1]. Bu qarash Bo'stonliq tumani uchun ayniqsa muhim, chunki tumanda tabiiy resurslar mavjud bo'lsa-da, ular iqtisodiy natijaga aylanishi uchun yo'l, joylashtirish, servis, marketing va ekologik nazorat tizimlari bilan birga boshqarilishi lozim. M. Mirzayev va M. Aliyeva turizm rivojida mahalliy va milliy turizm tamoyillarini qo'llash orqali iqtisodiy daromad olish imkoniyatlarini asoslaydi [2]. Ularning yondashuvi Bo'stonliqdagi ichki turizm salohiyatini baholashda muhim, chunki poytaxtga yaqinlik hududni dam olish kunlari, qisqa muddatli oilaviy turizm, sog'lomlashtirish va sport turizmi uchun qulay qiladi.

X.M. Mamatqulov, A.B. Bektemirov, I.S. To'xliyev va A.N. Norchayev xalqaro turizmning iqtisodiy aloqalar, xizmatlar eksporti va hududlararo integratsiyadagi rolini yoritadi [3]. Bo'stonliq tumanida turizmni faqat mahalliy dam olish maskani sifatida emas, balki xalqaro tog' turizmi, ekologik turizm va sport turizmi bozori bilan bog'lash zarur. I.S. To'xliyev, G'.X. Qudratov va M.Q. Pardaev turizmni rejalashtirishda tashkiliy mexanizmlar, shakllar va boshqaruv darajalarini alohida ko'rsatadi [4]. Bu fikr loyiha boshqaruvi bilan bevosita bog'liq: turizm loyihalarining samarasi ularning qanday moliyalashtirilgani bilangina emas, balki qaysi tashkilot tomonidan, qaysi muddatda, qaysi natija mezon bilan va qaysi risklar asosida boshqarilishiga ham bog'liq.

M.Q. Pardaev, Q.J. Mirzayev va O.M. Pardayev xizmatlar sohasi iqtisodiyotini o'rganar ekan, xizmatlar sifatining hududiy iqtisodiy o'sish va bandlikka ta'sirini asoslaydi [5]. Bo'stonliqda turizm xizmatlari mehmonxona yoki ovqatlanish bilan chegaralanmaydi; u gidlik, transport, suvenir savdosi, ijara, sport anjomlari, sog'lomlashtirish, ekologik marshrutlar, madaniy tadbirlar va raqamli servislarni ham qamrab oladi. N.S. Ibragimovning turistik hudud raqobatbardoshligi bo'yicha yondashuvi esa hududning muvaffaqiyatini faqat tabiiy go'zallik bilan emas, balki servis sifati, narx-navo, xavfsizlik, brend, infratuzilma va boshqaruv samaradorligi bilan baholash zarurligini ko'rsatadi [6].

Xorijiy adabiyotlarda loyiha boshqaruvi va turizm hududlarini rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Project Management Institute loyihani muayyan muddatda noyob mahsulot, xizmat yoki natija yaratishga qaratilgan vaqtinchalik tashabbus sifatida izohlaydi [7]. Bu ta'rif Bo'stonliqdagi turistik loyihalarga bevosita mos keladi: masalan, yangi mehmonxona qurilishi, yo'l infratuzilmasini yaxshilash, sanitariya shoxobchalari tashkil etish yoki turistik marshrutni raqamlashtirish — barchasi maqsadli loyiha sifatida boshqarilishi mumkin. J.R. Turner loyiha asosidagi boshqaruvni strategik o'zgarishlarni amalga oshirish vositasi sifatida ko'radi [8]. Demak, Bo'stonliqni yil davomida ishlaydigan turistik klasterga aylantirish alohida obyektlar qurilishi emas, balki strategik hududiy transformatsiya loyihadir.

H. Kerzner loyiha boshqaruvida integratsiya, vaqt, xarajat, sifat, risk va manfaatdor tomonlar boshqaruvining



muhimligini ta'kidlaydi [9]. Bo'stonliq misolida bu yondashuv davlat organlari, tuman hokimligi, Turizm qo'mitasi, investorlar, mahalliy aholi, ekologik tashkilotlar va servis korxonalarini manfaatlarini uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi. B. Flyvbjerg, N. Bruzelius va W. Rothengatter yirik infratuzilma loyihalarida xarajatlarni kam baholash, foydani ortiqcha prognozlash va risklarni yashirish holatlari ko'p uchrashini ko'rsatadi [10]. Shu sababli Bo'stonliqdagi turizm loyihalarida texnik-iqtisodiy asos, ekologik ekspertiza, real turist oqimi prognozi va risk zaxiralari aniq hisoblanishi lozim.

Davlat-xususiy sheriklik bo'yicha D. Grimsey va M. Lewis PPP loyihalarida risklarni eng yaxshi boshqara oladigan tomonga taqsimlash zarurligini asoslaydi [11]. Bo'stonliq sharoitida davlat yer, ruxsatnoma, yo'l va kommunikatsiya kabi umumiy infratuzilmani ta'minlashi, xususiy sektor esa mehmonxona, dam olish majmuasi, servis, marketing va ekspluatatsiya sifatini ta'minlashi maqsadga muvofiq. G. Hodge va C. Greve PPPni faqat moliyalashtirish vositasi emas, balki davlat boshqaruvi sifati, shaffoflik va javobgarlik masalasi sifatida baholaydi [12]. Bu fikr Bo'stonliqdagi turistik zonalar uchun muhim: xususiy investitsiya jalb etilsa ham, ekologik muvozanat, jamoatchilik manfaatlarini va ijtimoiy adolat davlat nazoratida qolishi kerak.

Turistik hududlar rivojlanish sikli bo'yicha R.W. Butler turistik hududlarning kashf etilish, o'sish, rivojlanish, to'yinish va pasayish bosqichlaridan o'tishini ko'rsatadi [13]. Bo'stonliq ayrim yo'nalishlarda o'sish va rivojlanish bosqichida, ayrim mavsumlarda esa haddan tashqari yuklama xavfi bilan to'qnashmoqda. Ritchie va Crouch turistik destinatsiya raqobatbardoshligini asosiy resurslar, qo'llab-quvvatlovchi omillar, destinatsiya boshqaruvi, siyosat va barqarorlik bilan bog'laydi [14]. Dwyer va Kim esa raqobatbardoshlikni resurslar, talab sharoiti, boshqaruv va ijtimoiy-iqtisodiy natijalar bilan o'lchaydi [15]. D. Buhalis turistik destinatsiyani marketing nuqtayi nazaridan kompleks mahsulot sifatida ko'radi va raqobatbardosh hudud uchun aniq pozitsiyalash, bozor segmentatsiyasi va raqamli targ'ibot zarurligini ta'kidlaydi [16]. Mazkur yondashuvlar Bo'stonliq uchun yagona xulosani beradi: tabiiy resurslar yetarli, lekin ularni barqaror iqtisodiy natijaga aylantirish uchun loyiha boshqaruvi, DXSH, raqamli marketing va ekologik cheklovlar birgalikda ishlashi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi Bo'stonliq tumanida turistik zonalarini rivojlantirishda loyihaviy boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy ahamiyatini kompleks baholashga yo'naltirildi. Maqolada sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Birinchi bosqichda normativ-huquqiy tahlil usuli qo'llanildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-161-son qarori, PF-6053-son farmoni, turizm sohasidagi davlat dasturlari, Toshkent viloyati turizm infratuzilmasi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar hamda davlat-xususiy sheriklikka oid nazariy yondashuvlar o'rganildi. Normativ tahlil orqali Bo'stonliq tumanida turizmni rivojlantirish oddiy hududiy tashabbus emas, balki davlat siyosati, loyiha boshqaruvi va DXSH mexanizmlari bilan bog'langan kompleks jarayon ekani aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy-statistik tahlil usuli qo'llanildi. Toshkent viloyati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari, turistik firma va tashkilotlar, joylashtirilgan shaxslar, nomerlar va joylar soni kabi ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirildi. Bo'stonliq tumanining viloyatdagi ulushi alohida baholandi. Bu usul hududning real iqtisodiy vaznini aniqlashga yordam beradi. Masalan, agar tuman mehmonxona obyektlari, joylar soni va joylashtirilgan shaxslar bo'yicha viloyatda yuqori ulushga ega bo'lsa, u holda bu hududda loyiha boshqaruvini kuchaytirish nafaqat mahalliy, balki viloyat turizm siyosati uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqichda PESTEL tahlili qo'llanildi. Siyosiy omillar sifatida Prezident qarorlari, maxsus boshqaruv tartibi va turizmni rivojlantirish dasturlari; iqtisodiy omillar sifatida investitsiya, xizmatlar hajmi, bandlik va mavsumiy daromadlar; ijtimoiy omillar sifatida mahalliy aholi bandligi, servis madaniyati va ichki turizm talabi; texnologik omillar sifatida raqamli bronlash, turistik navigatsiya, QR-marshrutlar va onlayn monitoring; ekologik omillar sifatida tog' hududlari yuklama sig'imi, chiqindi boshqaruvi va suv resurslari; huquqiy omillar sifatida DXSH shartnomalari, yer ajratish, auksion, ruxsatnoma va ekologik ekspertiza baholandi.

To'rtinchi bosqichda SWOT tahlili va ko'p mezonli baholash usuli qo'llanildi. SWOT orqali Bo'stonliqning kuchli tomonlari, zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflari aniqlashtirildi. Ko'p mezonli baholashda turistik loyihalar quyidagi mezonlar bo'yicha saralandi: iqtisodiy samara, bandlikka ta'sir, ekologik xavfsizlik, investitsiya jozibadorligi, infratuzilmaga ta'sir, mavsumiylikni kamaytirish, mahalliy biznesni jalb qilish va boshqaruv shaffofligi. Ushbu mezonlar asosida DXSH uchun eng maqbul loyihalar — yo'l va avtoturargoh, sanitariya-gigiyena shoxobchalari, oilaviy mehmon uylari, ekologik marshrutlar, turistik navigatsiya, chiqindi boshqaruvi va qishki-yozgi sport xizmatlari sifatida ajratildi.

Beshinchi bosqichda loyiha boshqaruvi yondashuvi qo'llanildi. Bunda har bir loyiha uchun maqsad, muddat, mas'ul tashkilot, moliyalashtirish manbasi, KPI, risklar, manfaatdor tomonlar va monitoring mexanizmi belgilanishi nazarda tutildi. Tadqiqotda loyiha ofisi modeli asosiy boshqaruv instrumenti sifatida taklif qilindi.




Loyiha ofisi tuman hokimligi, “Chorvoq” turistik-rekreatsion zonasini direktori, Turizm qo‘mitasi, investorlar va mahalliy tadbirkorlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi institut sifatida qaraldi. Bu yondashuv Bo‘stonliqdagi turizm loyihalarini tarqoq tashabbuslardan yagona portfel boshqaruviga o‘tkazish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Toshkent viloyatida turizm va dam olish sohasi bo‘yicha 2024-yil statistik ma‘lumotlari Bo‘stonliq tumanining viloyat turizm tizimidagi yetakchi o‘rnini ko‘rsatadi. 2024-yilda Toshkent viloyatida mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 116 tani, ulardagi nomerlar soni 1 865 tani, joylar soni 3 928 tani, joylashtirilgan shaxslar soni esa 150,2 ming kishini tashkil etgan [19]. Bo‘stonliq tumani ushbu ko‘rsatkichlar ichida alohida ulushga ega: tumanda 32 ta mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositasi mavjud bo‘lib, ularda 964 ta nomer, 2 036 ta joy va 71,1 ming nafar joylashtirilgan shaxs qayd etilgan [19]. Bu viloyatdagi joylar sonining yarmidan ortig‘i aynan Bo‘stonliq hissasi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Demak, Bo‘stonliq turizmini boshqarishdagi har qanday samarali loyiha viloyat turizm iqtisodiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Turistik firma va tashkilotlar faoliyati bo‘yicha ham Bo‘stonliq muhim o‘ringa ega. 2024-yilda Toshkent viloyati bo‘yicha 16 ta turistik firma va tashkilot faoliyat yuritgan bo‘lsa, Bo‘stonliq tumanida ularning 3 tasi joylashgan. Biroq xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni bo‘yicha tuman ulushi 35,8 foizni, sotilgan sayyohlik yo‘llanmalari bo‘yicha esa 33,6 foizni tashkil etgan [19]. Shuning uchun DXSH asosida turoperatorlik, gidlik, sport turizmi, ekologik marshrut, gastronomik turizm va raqamli turistik servislarni rivojlantirish zarur.

Prezident matbuot xizmati ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi besh yilda Bo‘stonliqda 2 trillion so‘mdan ziyod investitsiya kiritilib, 13 mingdan ziyod o‘ringa ega 59 ta yangi turizm inshooti ishga tushirilgan [20]. Bu ko‘rsatkich hududda investitsion faollik mavjudligini bildiradi. Biroq investitsiya hajmining ortishi loyiha boshqaruvi sifatini avtomatik tarzda kafolatlamaydi. Aksincha, investitsiya ko‘paygani sari risklar ham ortadi: yo‘l yuklamasi, ekologik bosim, suv va elektr ta‘minoti, narxlarning mavsumiy oshishi, xizmat sifati bo‘yicha shikoyatlar, norasmiy bandlek va mahalliy aholining jarayondan chetda qolishi kabi xavflar yuzaga chiqadi. Shu sababli har bir investitsion loyiha alohida emas, balki hududiy loyiha portfeli va master-reja doirasida baholanishi kerak (1-rasm).



1-rasm. Toshkent viloyatida mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni dinamikasi³

Grafikdan ko‘rinadiki, 2021–2023-yillarda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni nisbatan past va barqaror darajada saqlangan, 2024-yilda esa keskin o‘shish kuzatilgan. Bu o‘shish turizm

3 Manba: muallif ishlanmasi.



bozorining tiklanishi, ichki turizmga talabning ortishi, xususiyl investitsiyaning faollashuvi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari bilan bog'liq. Biroq bunday keskin o'sish loyihaviy boshqaruv talabini kuchaytiradi. Agar joylashtirish vositalari soni oshib, transport, sanitariya, chiqindi, xavfsizlik va navigatsiya infratuzilmasi shu darajada rivojlanmasa, turistik tajriba sifati pasayadi. Demak, Bo'stonliqda mehmonxona fondining o'sishi bilan birga yordamchi infratuzilma ham DXSH asosida parallel ravishda rivojlantirilishi kerak (1-jadval).

1-jadval. Bo'stonliq turistik zonalarida DXSH asosidagi ustuvor loyiha yo'nalishlari⁴

№	Turistik yo'nalish	DXSH formati	Davlat vazifasi	Xususiyl sektor vazifasi	Kutiladigan KPI
1	Chorvoq sohil zonasi	Konsessiya / servis shartnomasi	Yer, tartibga solish, ekologik limit	Plyaj servisi, avtoturargoh, chiqindi boshqaruvi	Tozalangan hudud ulushi, turist qoniqishi
2	Chimyon-Beldirsoy	Infratuzilma DXSH	Yo'l va kommunikatsiya	Sport-servis, ijara, mehmonxona	Mavsumdan tashqari tashriflar soni
3	Amirsoy atrof hududi	Investitsion bitim	Ruxsatnoma va integratsiya	Turli narxdagi xizmatlar	O'rtacha qolish muddati
4	Nanay-Yangiqo'rg'on	Mahalla turizmi DXSH	Marshrut va grant qo'llovi	Oilaviy mehmon uyi, gastronomiya	Mahalliy bandlik soni
5	Ekoturizm yo'laklari	Ekoservis shartnomasi	Muhofaza zonasi va monitoring	Gidlik, belgilangan marshrut	Chiqindi kamayishi, xavfsiz marshrutlar
6	Raqamli navigatsiya	IT-outsorsing	Ochiq ma'lumot va standart	Ilova, QR, bronlash tizimi	Onlayn bronlar va murojaatlar soni

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Bo'stonliqda barcha loyihalarni bir xil DXSH modeli bilan amalga oshirish to'g'ri emas. Yo'l, elektr, suv va umumiy infratuzilma loyihalarida davlatning roli yuqori bo'lishi kerak. Mehmonxona, ovqatlanish, ijara, sport-servis, gidlik va raqamli xizmatlarda esa xususiyl sektor yetakchi bo'lishi mumkin. Ekologik hududlarda davlat ekologik limit va nazoratni belgilaydi, xususiyl sektor esa ekologik standartlarga mos xizmat ko'rsatadi. Shunday qilib, DXSH modeli loyihaning turiga qarab farqlanishi lozim (2-jadval).

2-jadval. Bo'stonliq turizmini loyihaviy boshqaruv asosida baholash indikatorlari⁵

№	Indikator	2024 holati	Tashkiliyl mazmun	Iqtisodiy talqin	Loyiha boshqaruvi yechimi	DXSH bo'yicha natija
1	Mehmonxona obyektlari	32 ta	Joylashtirish bazasi kuchli	Daromad salohiyati yuqori	Sifat standartlari va reyting	Xususiyl investitsiya oshadi
2	Nomerlar soni	964 ta	Qabul qilish quvvati mavjud	Turist qolish muddatini oshiradi	Segmentatsiya va narx monitoringi	Raqobat kuchayadi
3	Joylar soni	2 036 ta	Viloyatda yetakchi ulush	Hududiy multiplikator kuchli	Mavsumiylikka qarshi mahsulotlar	Yil bo'yi daromad
4	Joylashtirilgan shaxslar	71,1 ming	Real talab mavjud	Servis aylanmasi ortadi	Turist oqimi prognozi	Investorga ishonch
5	Turistik firmalar	3 ta	Tashkiliyl taklif cheklangan	Bozor to'liq qamralmagan	Turoperatorlar inkubatori	Yangi bizneslar paydo bo'ladi
6	Sotilgan yo'llanmalar	1 732 ta	Paketli xizmat bor	Mahsulotni kengaytirish zarur	Raqamli turpaket platformasi	Sotuv kanallari oshadi
7	Ekologik yuklama	Yuqori mavsumda ortadi	Nazorat talab etiladi	Barqarorlik risk ostida	Carrying capacity monitoring	Ekoservis modeli shakllanadi

2-jadval natijalari Bo'stonliq turizmining ikki tomonlama xususiyatini ochib beradi. Bir tomondan, tumanda real talab, joylashtirish quvvati va investitsiya salohiyati mavjud. Ikkinchi tomondan, turistik firmalar sonining

4 Manba: muallif ishlanmasi.

5 Manba: muallif ishlanmasi.



cheklanganligi, xizmatlar diversifikatsiyasining yetarli emasligi va ekologik yuklamaning ortishi boshqaruv risklarini keltirib chiqaradi. Loyiha boshqaruvi aynan shu tafovutni bartaraf etadi: resurslar mavjud, ammo ular loyiha portfeli, muddat, KPI va javobgarlik tizimi orqali iqtisodiy natijaga aylantirilishi kerak.

SWOT tahlil natijalariga ko'ra, Bo'stonliqning kuchli tomonlari — tabiiy landshaft, poytaxtga yaqinlik, mavjud turizm brendlari, joylashtirish bazasi va investitsion qiziqishdir. Zaif tomonlari — mavsumiy tirbandlikning kuzatilishi, servis sifati bo'yicha ayrim tafovutlarning mavjudligi, ayrim hududlarda infratuzilmani yanada rivojlantirish zarurati, ekologik nazoratni takomillashtirish ehtiyoji hamda turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarining mavjudligidir. Imkoniyatlar — DXSH orqali yo'l, sanitariya, raqamli navigatsiya, sport va ekologik turizmni rivojlantirish; xavflar esa haddan tashqari qurilish, tabiatga bosim, narxlarning asossiz oshishi, mahalliy aholi manfaatlarining yetarlicha inobatga olinmasligi va mavsumdan tashqari davrda obyektlarning past yuklama bilan ishlashidir.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Bo'stonliq tumanida loyihaviy boshqaruvning tashkiliy ahamiyati — ko'p sonli manfaatdor tomonlar faoliyatini yagona maqsadga yo'naltirishda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy ahamiyati esa investitsiya samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, xizmatlar zanjirini kengaytirish, mahalliy tadbirkorlikni faollashtirish va hududiy daromad bazasini mustahkamlash bilan belgilanadi. DXSH bu jarayonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi vazifalarni aniq taqsimlaydi: davlat — tartibga soluvchi va infratuzilma yaratuvchi, xususiy sektor — investitsiya kirituvchi va xizmat sifatini oshiruvchi, mahalliy aholi esa turistik qiymat zanjirining ishtirokchisi sifatida qatnashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida turistik zonalarni rivojlantirishda loyihaviy boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatdi. Bo'stonliq tabiiy-rekreasion salohiyat, poytaxtga yaqinlik, mavjud turistik brendlar va investitsiya oqimi bo'yicha O'zbekistonning eng istiqbolli hududlaridan biridir. Biroq mazkur salohiyatni barqaror iqtisodiy natijaga aylantirish uchun turizm obyektlarini alohida-alohida qurish yetarli emas. Ularni yagona master-reja, loyiha portfeli, DXSH mexanizmi, ekologik monitoring, raqamli boshqaruv va mahalliy aholi manfaatlari bilan uyg'unlashtirish talab etiladi.

Bo'stonliq tumanida turizmni rivojlantirishda birinchi muhim xulosa shuki, hududda talab va taklifni yanada uyg'unlashtirish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud. Talab yuqori, turistik oqimi sezilarli, joylashtirish vositalari soni ortmoqda. Servislar diversifikatsiyasini kengaytirish, transport va sanitariya infratuzilmasini izchil rivojlantirish, raqamli ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, ekologik nazorat samaradorligini oshirish hamda mavsumdan tashqari turistik mahsulotlarni rivojlantirish ushbu talabning uzoq muddatli raqobatbardoshlikka xizmat qilishini ta'minlaydi. Shu bois turizmni rivojlantirishda "ko'proq obyekt qurish" yondashuvi bilan bir qatorda "sifatli turistik tajriba yaratish" yondashuvini izchil rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi xulosa — davlat-xususiy sheriklik Bo'stonliq uchun eng maqbul boshqaruv mexanizmlaridan biridir. Chunki davlat barcha mehmonxona, servis va dam olish obyektlarini o'zi qurishi iqtisodiy jihatdan samarasiz; xususiy sektor esa yo'l, ekologik nazorat, umumiy infratuzilma va hududiy rejalashtirishni mustaqil hal qila olmaydi. Shuning uchun davlat umumiy infratuzilma, yer ajratish shaffofligi, ekologik limit, xavfsizlik va monitoringni ta'minlashi, xususiy sektor esa servis, investitsiya, marketing, ekspluatatsiya va innovatsion xizmatlarni rivojlantirishi lozim.

Uchinchi xulosa — Bo'stonliqda loyiha ofisi tashkil etish zarur. Loyiha ofisi "Chorvoq" turistik-rekreasion zonasini direktivasi, Toshkent viloyati hokimligi, Bo'stonliq tumani hokimligi, Turizm qo'mitasi, investorlar va mahalliy tadbirkorlar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi tuzilma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu ofis har bir loyiha bo'yicha texnik topshiriq, muddat, moliyalashtirish manbasi, KPI, risk xaritasi va monitoring hisobotini yuritishi kerak. Natijada turizm loyihalari tarqoq tashabbus emas, balki yagona portfel sifatida boshqariladi.

Takliflar quyidagilardan iborat. Birinchidan, Bo'stonliq tumanining barcha asosiy turistik zonalari bo'yicha yagona "Bo'stonliq turizm master-rejasi" ishlab chiqilishi lozim. Unda qurilish zichligi, ekologik sig'im, transport oqimi, avtoturargohlar, piyodalar yo'laklari, sanitariya shoxobchalari, chiqindi boshqaruvi va suv resurslari bo'yicha aniq cheklovlar belgilanishi kerak. Ikkinchidan, DXSH loyihalari uchun alohida "ustuvor loyiha katalogi" shakllantirilishi zarur. Bu katalogda har bir loyiha qiymati, kutilayotgan daromad, davlat hissasi, xususiy sektor hissasi, qaytarilish muddati va ijtimoiy-ekologik natijalari ko'rsatilishi kerak.

Uchinchidan, Bo'stonliq turizmida mavsumiylikni kamaytirish uchun yil davomida ishlaydigan mahsulotlar ishlab chiqilishi kerak. Qishda chang'i, sog'lomlashtirish, gastronomik va ziyorat turizmi; bahor va kuzda trekking, ekologik marshrutlar, etnoturizm va konferensiya turizmi; yozda suv bo'yi dam olish, sport, oilaviy turizm va festival tadbirlari rivojlantirilishi maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, mahalliy aholi turistik qiymat zanjiriga faol jalb etilishi kerak. Oilaviy mehmon uylari, mahalliy taomlar, hunarmandchilik, gidlik, transport va kichik servislar orqali aholi daromadi oshirilsa, turizm ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi.



Beshinchidan, raqamli monitoring tizimi joriy etilishi lozim. Unda turistlar oqimi, joylashtirish vositalari bandligi, narxlar, shikoyatlar, ekologik yuklama, chiqindi hajmi, avtoturargoh bandligi va xizmat sifati ko'rsatkichlari real vaqtga yaqin rejimda kuzatilishi kerak. Oltinchidan, ekologik xavfsizlik DXSH shartnomalarining majburiy bandiga aylantirilishi zarur. Har bir investor chiqindi boshqaruvi, suvdan foydalanish, yashil hududlarni saqlash, energiya samaradorligi va mahalliy ekologik normalarga rioya qilish bo'yicha javobgarlikka ega bo'lishi kerak.

Umuman olganda, Bo'stonliq tumanida turistik zonalarni rivojlantirish uchun eng samarali model — davlatning strategik rejalashtirish va infratuzilma yaratish funksiyasi, xususi sektorning investitsiya va servis sifati bo'yicha salohiyati, mahalliy aholining iqtisodiy ishtiroki hamda loyiha boshqaruvining shaffof monitoring tizimini birlashtirgan DXSH modelidir. Ana shu yondashuv Bo'stonliqni nafaqat mavsumiy dam olish maskani, balki xalqaro darajadagi, barqaror, raqobatbardosh va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan turistik hududga aylantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'xliyev, I. S. (2010). Turizm asoslari. Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
2. Mirzayev, M., & Aliyeva, M. T. (2011). Turizm asoslari. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
3. Mamatqulov, X. M., Bektemirov, A. B., Tuxliyev, I. S., & Norchayev, A. N. (2007). Xalqaro turizm. Toshkent.
4. Tuxliyev, I. S., Qudratov, G. X., & Pardaev, M. Q. (2010). Turizmni rejalashtirish. Toshkent.
5. Pardaev, M. Q., Mirzaev, Q. J., & Pardayev, O. M. (2014). Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
6. Ibragimov, N. S. (2020). Turistik hudud raqobatbardoshligi. Toshkent.
7. Project Management Institute. (2021). A Guide to the Project Management Body of Knowledge: PMBOK Guide (7th ed.). Newtown Square, PA: PMI.
8. Turner, J. R. (2014). The Handbook of Project-Based Management (4th ed.). New York: McGraw-Hill.
9. Kerzner, H. (2017). Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling (12th ed.). Hoboken, NJ: Wiley.
10. Flyvbjerg, B., Bruzelius, N., & Rothengatter, W. (2003). Megaprojects and Risk: An Anatomy of Ambition. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Grimsey, D., & Lewis, M. K. (2007). Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance. Cheltenham: Edward Elgar.
12. Hodge, G., & Greve, C. (2007). Public-private partnerships: An international performance review. *Public Administration Review*, 67(3), 545–558.
13. Butler, R. W. (1980). The concept of a tourist area cycle of evolution: Implications for management of resources. *The Canadian Geographer*, 24(1), 5–12.
14. Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. (2003). *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. Wallingford: CABI Publishing.
15. Dwyer, L., & Kim, C. (2003). Destination competitiveness: Determinants and indicators. *Current Issues in Tourism*, 6(5), 369–414.
16. Buhalis, D. (2000). Marketing the competitive destination of the future. *Tourism Management*, 21(1), 97–116.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi "Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-161-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8167886>
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-avgustdagi "Bo'stonliq tumanida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish orqali turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6053-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4971096>
19. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. (2025). Toshkent viloyatida turizm va dam olishni rivojlanishi: 2024-yil yakunlari bo'yicha press-reliz. Toshkent.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. (2024). Bo'stonliqda keng miqyosli turizm markazi quriladi. Toshkent.
21. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). 2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan. Toshkent.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2023-yildagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6549286>
23. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. (2025). Toshkent viloyati turizm salohiyati. Uzbekistan.travel.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>